



JISMONIY SHAXSLARNI TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH MASALALARI SHARHI

Narbayev Sultonbek Kalmurza ugli

Ollomberganov Jamshid Oybek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchilari



Annotation

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotlarini tartibga solinishi va uni takomillashtirish bank tizimining barqaror rivojlanish omili hisoblanadi. Mazkur maqolada jismoniy shaxslarni kreditlashning nazariy jihatlari tadqiq qilinib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kredit, qarz yuki, qarz oluvchilarning xarid qobiliyati, inflyatsiya, iste'mol xarajati.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida aholining turmush farovonligini va daromadlarini oshirish, ularning bandligini ta'minlash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari tomonidan aholining turli qatlamlariga tijorat va imtiyozli shartlar asosida kreditlar taklif etilmoqda. Natijada 2023 yil 1 yanvar holatiga banklar tomonidan aholiga ajratilgan kreditlarning jami kredit porftelidagi ulushi 25,9 % ni tashkil etib, o'tgan 2022 yil 1 yanvarga nisbatan (21,3%) 4,6 f.p. ga oshgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tadqiqotlarda aholiga ajratilgan kreditlar va aholi jon boshiga YaIMning qiymati o'rtasida ijobjiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. 2020 yilgi ma'lumotlar asosidagi tahlillar, rivojlangan mamlakatlar bo'yicha YaIMning aholi jon boshiga qiymatiga mos ravishda xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati darajasining ham shakllanayotganini ko'rsatgan.

So'nggi yigirma yil ichida butun dunyo bo'ylab aholining qarz yuki keskin o'smoqda. Global moliyaviy inqiroz natijasida yuqori darajada qarzdor oilalarda iste'molning tez pasayishi iqtisodiyotda yalpi talabni qisqarishiga sabab bo'ldi.

Bundan tashqari, inqirozdan beri qarz yuki darajasi yangi yuqori darajaga chiqishda davom etdi. Bu esa, tabiiyki, nazariy va empirik nuqtai nazaridan aholining qarzi va iste'moli o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni talab etmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozigacha bo'lgan davrda aholi umumiy qarzining iqtisodiy o'sishga ijobjiy ta'siri qayd etilgan va ijobjiy omil sifatida qaralgan. Masalan F.Mishkin, K.Mervin, G.Debelle uy xo'jaliklarining qarzlari iqtisodiy faoliyatda muhim rol o'ynashi aniqlangan. Ularning fikricha jismoniy shaxslar yuqori qarz yukiga duch kelganda daromad va foiz stavkalar o'zgarishiga ko'proq sezgir bo'lishadi [2-3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarining jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotlarini tartibga solishda quyidagi instrumentlardan keng foydalanmoqda:

1. Tijorat banklarida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning tavakkalchilik darajasini belgilash;
2. Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning kreditlar (mikroqarzlar) bo'yicha qarz yukini belgilash;
3. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdorini qonun va qonun-osti me'yoriy hujatlarda belgilash.
4. Tijorat banklarida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning tavakkalchilik darajasini belgilash.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar foiz stavkalari darajasidan kelib chiqib, tavakkalchilik darajasi 200 foizgacha belgilangan. Jismoniy shaxslarni to'lovlarini va qarz yukini oshishini oldini olish maqsadida yuqori foiz stavkali kreditlarga yuqori risk darajasi belgilangan. Banklarda yuqori foiz stavkada kreditlar ajratish, bankning hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi oshadi hamda bank kapitali monandlilik ko'rsatkichlarini pasaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 19 dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning kreditlar (mikroqarzlar) bo'yicha qarz yukini hisoblash tartibi, qarz yukining ruxsat etilgan miqdori, shuningdek qarz yuki o'sishini cheklash to'g'risida" gi 3205-sun nizomga





Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th July, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

asosan qarz oluvchi jismoniy shaxslarga kreditlar yoki mikroqarzlar ajratilayotganda qarz yukini hisoblash tartibini, qarz yukining ruxsat etilgan miqdorini, qarz yuki o'sishini cheklab turishni, shu jumladan kunlik eng yuqori foiz stavkalari tartibga solinadi.

Qarz yuki ko'rsatkichi –ajratilayotgan kreditning bir oylik o'rtacha to'lovi hamda qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining barcha mavjud kredit (mikroqarz)lari bo'yicha o'rtacha oylik to'lovlari miqdorining qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining tasdiqlangan o'rtacha oylik daromadlari miqdoriga nisbatida aniqlanadi.

Nizomga asosan qarz yuki ko'rsatkichi har bir qarz oluvchiga banklar va mikrokredit tashkilotlari tomonidan mikroqarz yoki lombardlar tomonidan kredit (mikroqarz) ajratishda uning summasi va qarz oluvchining amaldagi kredit (mikroqarz) shartnomalari bo'yicha asosiy qarz qoldig'i yig'indisi bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan oshganda hisoblanadi.

Shuningdek, qarz yukini cheklash maqsadida Markaziy bank tomonidan qarz beruvchi tomonidan kreditlar (mikroqarzlar) ajratilayotganda jismoniy shaxsning qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi belgilangan. Qarz beruvchi tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan barcha kredit (mikroqarz) shartnomalari bo'yicha kunlik eng yuqori foiz stavka 0,3 foizdan oshmasligi biroq foizlar, vositachilik haqi, penya va boshqa javobgarlik choralar miqdori yillik qarz summasining yarmidan ko'p bo'lmasligi lozim.

Jismoniy shaxslarga ajratiladigan kredit miqdorini aniqlashda qarz yuki ko'rsatkichidan foydalaniladi va bunda qarz yuki ko'rsatkichi belgilangan 50 foizdan yuqori bo'lmasligi lozim. Qarz oluvchining qarz yuki belgilangan me'yordan ortganda bank xodimi mijozga muqobil summani taklif etishi kerak.

Tijorat banklarida mas'ul xodim kredit berish jarayonida qarz oluvchiga kreditni qaytarish bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligi kredit bo'yicha penya va jarimalar hisoblanishiga olib kelishi oqibatida qarz yukining ortishiga, kechiktirilayotgan to'lovlar ularning kredit tarixiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda kelgusida kredit olish imkoniyatlari cheklanib qolishi mumkinligi to'g'risida batafsil tushuntirishi kerak.

Makroiqtisodiy nuqtai-nazardan jismoniy shaxslarni kredit yukini baholashda xalqaro amaliyotda asosan 3 ta uslubiy yondashuvdan [4]:



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th July, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

- 1) Kredit to‘lovining daromadga nisbati ko‘rsatkichi (Payment-to-income ratio),
- 2) Qarz majburiyatlariga xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichi (Debt-Service-Ratio)
- 3) Qarz majburiyatlarining YaIMga nisbati (Debt-to-GDP) ko‘rsatkichidan foydalaniladi.

XULOSA VA MUNOZARA

O‘tkazilgan tadqiqot va tahlil natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O‘zbekiston Respublikasida Markaziy bank qarz yukini tartibga solish maqsadida, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlaridagi jismoniy shaxslarning qarzdorligi to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini shakllantirish. Mazkur bazaga muddatli to‘lov asosida ishlaydigan korxonalar va dillerlardan jismoniy shaxslarga muddatli to‘lov asosida tuzilgan bitimlarni kiritilishi lozim.
2. Jismoniy shaxslarning qarz yukini kreditlar va muddatli to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik qoldig‘idan kelib chiqib aniqlash maqsadga muvofiq. Bunda makrodarajada aholi zimmasiga tushadigan qarz yuki baholanadi va holat bo‘yicha aniq xulosa chiqarish mumkin. Shuningdek, tijorat banklarida qarz yuki darajasini aniq baholash, jismoniy shaxslarni kreditlashda kredit riskini minimallashtirishga xizmat qiladi. Chunki, hozirgi kunda tijorat banklari qarz yukini boshqa banklardagi mavjud kredit qarzdorliklaridan kelib chiqib aniqlaydi.
3. Makrodarajada jismoniy shaxslarning qarz yukini iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sirining oldini olish maqsadida, Markaziy bank tomonidan aholining qarz yuki darajasining YaIMga nisbati chegarasini 50 foiz darajasida ta’minlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. "Qisqa va uzoq muddatda uy xo‘jaliklari qarzining real ta’siri" Marko Jakopo Lombardi, Madhusudan Mohanti va Ilxyok Shim, BIS Ishchi hujjatlari | № 607 26 yanvar 2017 yil –<https://www.bis.org/publ/work607.pdf>
2. Egert B., Backe P., Zumer T. Markaziy va Sharqi Evropada kreditning o’sishi: yangi (ortiqcha) otuvchi yulduzlar? ECB ishchi qog’ozi, № 687., / OKTYABR 2006 - <https://www.ecb.europa.eu/home/html/index.en.html>

Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th July, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

3. Mishkin, Frederik S. Pul, bank va moliya bozorlari iqtisodiyoti, oltinchi nashr, Upper Saddle River: Pearson Education International. 2003 yil.
4. King, Mervin "Pul-kredit siyosati institutlari". American Economic Review Papers and Proceedings, 2004, 94, 1-13.



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

E- CONFERENCE
SERIES